



**EOC**  
EUROASIAN  
ONLINE  
CONFERENCES

# ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND  
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object  
identifier

eoconf.com - from 2024



**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION:** a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

**Languages of publication:** Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





## **EVFIMIZMNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI TOG'AY MUROD ASARLARIDA**

**Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna**

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

**Kattaqulova Durdona**

TerDPI 1-kurs magistranti

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada evfemizmlarning nazariy asoslari, turlari, ularning lingvistik va pragmatik xususiyatlari chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" hamda "Ot kishnagan oqshom" asarlarida evfemizmlar badiiy nutqni shakllantirishdagi funksiyasi, obraz yaratishdagi o'rni hamda milliy-madaniy kodni ifodalashdagi vazifasi batafsil o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** evfemizm, lingvistika, pragmatika, stilistika, badiiy nutq, Tog'ay Murod, milliy mentalitet, yashirin ma'no, semantika.

### **Аннотация**

В данной статье подробно анализируются теоретические основы эвфемизмов, их виды, лингвистические и прагматические особенности. Кроме того, исследуется функция эвфемизмов в художественной речи на примере произведений Тогая Мурода «Люди, идущие при лунном свете» и «Вечер, когда ржали кони», их роль в создании образов и отражении национально-культурного кода.

**Ключевые слова:** эвфемизм, лингвистика, прагматика, стилитика, художественная речь, Тогай Мурад, национальный менталитет, скрытый смысл, семантика.

### **Abstract**

This article provides an in-depth linguistic analysis of euphemisms, their theoretical foundations, classifications, and pragmatic features. Furthermore, the study examines the artistic and stylistic functions of euphemisms in Togay Murod's works "People Walking in the Moonlight" and "The Evening When Horses Neighed," focusing on their role in character depiction and representation of national-cultural identity.

**Keywords:** euphemism, linguistics, pragmatics, stylistics, artistic speech, Togay Murad, national mentality, hidden meaning, semantics.

### **KIRISH**

Tilshunoslikda evfemizm tushunchasi nutq madaniyati, inson ruhiyati va jamiyat madaniy-estetik qarashlari bilan bevosita bog'liq. Tilning rivoji jarayonida evfemizmlar muhim semantik va pragmatik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ular nutqni yumshatish, noqulay ma'noni bilvosita yetkazish, muayyan ijtimoiy, madaniy, psixologik holatni aks ettirish kabi vazifalarni bajaradi. Evfemizmlar har bir tilning madaniy-estetik qarashlari,





xalq mentaliteti, jamiyat ijtimoiy hayotining o'ziga xos ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Evfemizmlar haqidagi nazariy qarashlar

Evfemizm (yun. euphēmismos – “yoqimli so'zlash”) tilda ma'nosi qo'pol, noo'rin yoki tabu hisoblangan tushunchalarni yumshoqroq, bilvosita ifoda etish usulidir. Tilshunoslikda evfemizmlar semantik, pragmatik, sotsiolingvistik va madaniy nuqtayi nazardan o'rganiladi. Ular inson tafakkurdagi etnik normalar, psixologik to'siqlar, axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq holda shakllanadi. O'zbek tilida evfemizmlar ko'proq axloqiy-etik me'yorlar, keksalarga hurmat, ayollarning noziklik jihatlari, o'lim, kasallik, iqtisodiy ahvol kabi masalalarni yumshatishda qo'llanadi. Shunga ko'ra evfemizmlar quyidagi turlarga ajratiladi: 1. Semantik evfemizm; 2. Pragmatik evfemizm; 3. Ijtimoiy evfemizm; 4. Kasbiy evfemizm; 5. Milliy- madaniy evfemizm; 6. Poetik-badiiy evfemizm.

1. Semantik evfemizmlar. Semantik jihatdan evfemizm ma'noni to'g'ridan-to'g'ri bildirmaydi; u implikatura, presuppozitsiya va konnotativ ma'nolari orqali o'quvchi/tinglovchiga signal beradi. Bu turdagi evfemizmlar ma'no yumshatish orqali qo'llanadi. Masalan, “o'ldi” deyish o'rniga “vafot etdi”, “ketdi”, “olamdan o'tdi” kabi yumshoq shakllar qo'llanadi. Ko'pincha evfemizmlar metafora (masalan, oxirgi yo'lga kuzatish = o'lim) yoki metonimiya yordamida hosil bo'ladi. Bazen semantik xususiyatda to'g'ri so'z o'rniga atroflicha yoki tavsiflovchi ibora ishlatiladi – u biroz yosh o'rniga u yoshga yetmagan, yoki ishsiz o'rniga band emas. Bu semantik aniqlikni pasaytiradi.

2. Pragmatik evfemizmlar. Pragmatika esa nutqning maqsadi, vaziyati, ijtimoiy munosabatlar, tinglovchi va so'zlovchi o'rtasidagi psixologik va ijtimoiy masofa, yuzni saqlash tamoyillari kabi omillarni o'rganadi. Shuning uchun evfemizmlar asl ma'noni bevosita aytmasdan, tushunishni tinglovchiga qoldiruvchi implicature orqali ishlaydi. Nutq vaziyatiga mos holda, suhbatdoshni ranjitmaslik yoki psixologik noqulaylikni kamaytirish maqsadida ishlatiladi. Pragmatik evfemizmlar kontekstda turlicha qo'llanadi. Ijtimoiy kontekst. Qaysi jamoa ichida gapirilmoqda? Qanday mavzu tabu hisoblanadi? Masalan, o'zbek oilaviy suhbatida “o'lim” yoki “jinsiy mavzular” ko'pincha evfemizmlar orqali ifodalanadi. Madaniy kontekst. Madaniyatga ko'ra evfemizm turi o'zgaradi. Masalan: O'zbeklarda “homilador” o'rniga “umidi bor”, Yaponlarda “o'lim” uchun 20 dan ortiq evfemizm bor. Rasmiy kontekst. Davlat idoralarida qo'llaniladigan tushunchalar “kamchilik bor” o'rniga “takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlari”, “qashshoqlar” o'rniga “kam ta'minlanganlar” 3. Ijtimoiy evfemizmlar. Jamiyatdagi tabu mavzular — o'lim, kasallik, jismoniy nuqson, siyosiy nozik holatlarni bilvosita ifoda qilishga xizmat qiladi. Uning asosiy vazifasi — ijtimoiy moslashuv, hurmat, konfliktni oldini olish, stigmani kamaytirish. Ijtimoiy maqom bilan bog'liq





evfimizmlarIjtimoiy tabaqalanishni yumshatadi. Misollar: “Qashshoqlik” – “moddiy jihatdan qiynalayotgan”, “boy” “moliyaviy imkoniyati keng”, “yetim” “ota-onadan erta ajralgan” Kasb-hunar bilan bog‘liq evfimizmlar. Ba’zilar ijtimoiy jihatdan past baholangan kasblarni yumshatadi. Misollar: “Tozalovchi” – “xizmat ko‘rsatuvchi xodim”, “o‘qituvchi yordamchisi”, “pedagogik ko‘makchi” Salbiy ijtimoiy hodisalarni yumshatish. Misol uchun: “O‘g‘irlik ko‘paydi”, “huquqbuzarlik holatlari ortdi”, “jinoiy guruhlar”, “tartibbuzarlik elementlari” Tana-ko‘rinish bilan bog‘liq ijtimoiy evfimizmlar Misol uchun: “Semiz”, “vazni ortiqcha”, “kattaroq gavdali”, “past bo‘yli” “bo‘yi kichik” Sog‘liq bilan bog‘liq ijtimoiy evfimizmlar. Misol uchun: “Nogiron” “imkoniyati cheklangan shaxs”, “kar-soqov”, “eshitish va nutqida muammosi bor” 4. Kasbiy evfemizmlar Muayyan kasb egalari professional nutqda yumshatilgan terminlardan foydalanadi. Masalan, shifokorlar “og‘ir ahvolda”, “xavotirli holat” kabi yumshoq ifodalarni qo‘llaydi. Operatsiya muvaffaqiyatsiz tugadi “Jarayon kutilgan natija bermadi” Psixiatriya bo‘limi “Nevrologiya xizmatlari” (yumshoqroq eshinishi uchun) Yuragi to‘xtagan “Uchinchi darajali reanimatsiya talab qilindi” 5. Milliy-madaniy evfemizmlar Milliy-madaniy evfemizmlar — bu xalqning mentaliteti, qadriyatlari, diniy e‘tiqodi, odob-axloq me‘yorlari va ijtimoiy qarashlari asosida shakllangan yumshoq, bilvosita ifodalar bo‘lib, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish noqulay bo‘lgan tushunchalarni madaniy jihatdan maqbulroq holatda ifodalaydi. Xalqning urf-odati, diniy qarashlari va mentaliteti asosida shakllanadi. O‘zbek tilida “jin” o‘rniga “haliq”, “qo‘rqinchli” o‘rniga “yomon qarashli” kabi ifodalar bunga misoldir.

Oila va shaxsga hurmat - o‘zbek mentalitetida katta-kichikka hurmat, gender odobi, oila sirlarini oshkor qilmaslik kuchli bo‘lgani uchun ko‘plab evfemizmlar shu ehtiyojdan kelib chiqqan. Misollar: qaynonam o‘rniga — onasilar, qaynona-kelin mojarosi o‘rniga — uyda bir oz gap bo‘ldi. Diniy e‘tiqod bilan bog‘liq bo‘lishi – diniy qadriyatlar nozik mavzularni yumshoq ifoda etishni talab qiladi. Misollar: jin o‘rniga — nozikta‘blar, yomon ko‘z egalari, qabr o‘rniga — oromgoh. Uyat, nozik mavzularni bevosita aytmaslik - o‘zbek jamiyatida uyat va hayo tushunchalari kuchli, shu bois jinsiylik, tana a‘zolari, kasallik yoki qobiliyatsizlikni yumshatib aytish odati bor. Misollar: qashshoq — qo‘li qisqa, sharoiti biroz og‘ir. Muomala odobi - tortishuvni kuchaytirmaslik, suhbatdoshni ranjitmaslik uchun evfemizmlar qo‘llanadi. Misollar: ahmoq o‘rniga — tushinishi og‘ir, sal sekinroq.

O‘zbek xalqida ona, ota, oila obro‘si, qadr-qimmat juda muhim. Shu sababli evfemizmlar ko‘pincha mana shu qadriyatlarni himoya qiladi. 6. Poetik-badiiy evfemizmlar. Adabiy asarlarda obraz yaratish, dramatik ta‘sirni oshirish, nutqni estetik qilish uchun qo‘llanadigan evfemizmlardir. Poetik badiiy evfemizmlar — badiiy adabiyotda, she‘riyatda yoki nasrda tasvirni nafislashtirish, ohangni yumshatish, hissiy ta‘sirni kuchaytirish uchun qo‘llanadigan bilvosita, nozik va obrazli ifodalardir. Ular: a) qo‘pol yoki nozik





mavzularni poetik shaklda bezatadi, b) hissiyotlarni kuchliroq yetkazadi, d) matnning estetik ta'sirini oshiradi, e) ramz, metafora, o'xshatish orqali yumshoq ma'no beradi. Poetik evfimizmlarning badiiy funksiyasi asarni estetik qilish, hissiylikni kuchaytirish va jonlantirish hisoblanadi.

Tog'ay Murod asarlarida evfemizmlarning qo'llanilishi

Tog'ay Murod o'zbek adabiyotining o'ziga xos badiiy ruhga ega yozuvchilaridan hisoblanadi. Uning asarlarida xalqona ruh, sodda, samimiy lekin teran ma'noli iboralardan foydalanish muhim stilistik xususiyat hisoblanadi. Yozuvchi evfemizmlar orqali nafaqat nutqni yumshatadi, balki qahramon ichki kechinmalarini, milliy mentalitetni, voqea drammatizmini yanada kuchaytiradi.

“Oydinda yurgan odamlar” asaridagi evfemizmlar. Asarda qo'llangan evfemizmlar ko'proq ruhiy holat, qo'rquv, umid, jarohatlangan inson taqdirini ifodalashda namoyon bo'ladi. Masalan: — “Boshiga kun tushdi” — qahramonning og'ir ahvolga tushganini bilvosita bildiradi. — “Kuni bitay deb qoldi” — o'limga ishora qiluvchi yumshoq evfemizmlar. — “Ko'ngli yorishmayapti” — ruhiy tushkunlikni nazokatli ifodalash. Bunday holatda poetik evfimizmlarning mahorat bilan qo'llanilishi, asarning estetik ta'sirini oshirishini kuzatish mumkin. T.Murod qahramonlari o'z qashshoqligini ochiq aytmaydi, buni evfemistik yumshoqlik bilan ifodalaydi. Masalan, “Sharoyti og'ir” — kambag'al, “uyida sermehnat kunlar bor” — moddiy qiyinchilik, “qo'li qisqa” — pul topishi qiyin. “Oydinda yurgan odamlar” asarida evfemizmlar: xalqona tilning tabiiy tarkibi, drammatizmni yumshatuvchi vosita, obrazlilikni kuchaytiruvchi badiiy texnika, qahramon ruhiyatini bilvosita ko'rsatuvchi usul sifatida ishlatiladi. Bu asarda evfemizmlar nafaqat lingvistik, balki estetik, psixologik va madaniy funksiyani bajaradi.

“Ot kishnagan oqshom” asaridagi evfemizmlar

Ushbu asarda evfemizmlar drammatik vaziyatni kuchaytirish, og'riqli voqealarni yumshoq tasvirlash, hayotiy fojialarni bilvosita ko'rsatish uchun qo'llanadi: — “U yoqqa ketdi” — o'limni aytmay, bilvosita ifoda qilish. — “Oqshom bosildi” — fojia yaqinlashuvi yoki xavotirli vaziyatga ishora. — “Umidi so'ndi” — ma'naviy qulashni yumshoq tasvirlash.

“Ot kishnagan oqshom” asarida evfemizmlar: xalq og'zaki nutqidan olingan, badiiy tasvirni kuchaytiruvchi vosita, qahramon ruhiyatini nozik aks ettiruvchi shakl, metafora va ramzlar orqali kuchli poetik ma'no beradigan birliklar hisoblanadi. Bu asarda evfemizmlar Tog'ay Murod uslubining ajralmas xususiyati sifatida namoyon bo'ladi.

Evfemizmlarning Tog'ay Murod uslubidagi o'rni

Yozuvchining evfemizmlardan foydalanish uslubi o'ziga xos bo'lib, u:

- 1) yumshoq xalqona iboralar;
- 2) poetik tasvir vositalari;
- 3) milliy madaniy kodni aks ettiruvchi ifodalar;





4) qahramon ruhiyatini ko'rsatishga xizmat qiluvchi bilvosita tasvirlarga tayanadi.

Shu tariqa evfemizmlar Tog'ay Murod uslubining asosiy poetik komponentiga aylanadi.

#### XULOSA

Evfemizmlar tilning madaniy-estetik ko'rinishini belgilovchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi. Tog'ay Murod asarlarida evfemizmlarning qo'llanilishi milliy ruh, xalqona kayfiyat, obrazli nutqni yaratishda juda katta ahamiyatga ega. Yozuvchi evfemizmlar orqali nafaqat nutqni yumshatgan, balki qahramon ruhiy olamini, hayotiy ziddiyatlarni chuqur badiiy talqin etishga erishgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov R. Stilistika asoslari. – Toshkent, 2015.
2. Abduazizov A. Lingvistika va madaniyat. – Toshkent, 2014.
3. Qosimov B. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2012.
4. Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent, 1997.
5. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent, 1993.

